SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4
2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4I11Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) - 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 11-son (Noyabr, 2024). -569 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич*
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА ........ 12-17

*Эгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли*
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) ........ 18-25

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
QO’QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI ........ 26-31

*Mamatqulov Bekzod*
O‘ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI ........ 32-38

*Asadova Ra’no Baymanovna*
O‘ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI ........ 39-42

*Saidova Raxima*
O‘ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI .... 43-48

*Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi*
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI ........ 49-55

*Iriskulov Bekzod Jaxongirovich*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYuDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ........ 56-60

*Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna*
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI ........ 61-66

*Луҳмонов Шаҳзод Сайфиддин ўғли*
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР ........ 67-71

*Axmedov Bekzod*
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA QORAKO‘LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI ........ 72-75

*Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li*
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O‘RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) ........ 76-80

*Saidaxmatov Sharifbek Toshpo‘latovich*
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI ........ 81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ........ 94-99

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bektmuxammad Omonovich*
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ........ 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO‘LLANISHI ........ 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA........ 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*
KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI........ 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING OF GOODS AND SERVICES ........ 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po‘latjon qizi*
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI TASNIFI ........ 153-160

*Sharipov Komil*
MINTAQAVIY KAMBAG’ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ........ 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*
MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI........ 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN........ 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING TAHLILI ........ 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o‘g‘li*
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI ........ 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ........ 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA)........ 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN........ 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO‘RSATISHNING XUSUSIYATLARI ........ 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH TAHLILI ........ 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*
TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI ........ 234-243

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA’SIRI ........ 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
XORAZM JADIDLARI MA’NAVIY MEROSINING YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG‘RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI...... 249-254

*Saburov Jaloliddin*
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI ........ 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*
NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA “KOMIL INSON ” TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA’NAVIY YUKSALISHGA OID G‘OYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ........ 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI ........ 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION ........ 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 283-287

## 11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Baxronova Dilrabo*
PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ........ 288-295

*Daliyeva Madina*
DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 296-300

*Paluanova Khalifa*
STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ........ 301-306

*Равшанов Махмуд*
СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ........ 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*
SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ........ 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*
MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ........ 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*
ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ........ 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*
TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ........ 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*
KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*
XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ........ 340-345

*Расулова Камола*
ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ........ 346-353

*Омонов Турғунбой*
"СУҒУРТА" ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ........ 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*
IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*
CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ........ 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*
EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI ........ 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIYALARINI O‘RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ........ 386-390

*Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi*
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ........ 391-396

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Рузметов Хайрулла*
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ........ 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ........ 403-410

*Abdubannayev Umidjon*
AXBOROTGA BO‘LGAN INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ........ 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ........ 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон Ўғли*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ........ 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ........ 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ........ 463-469

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xusanova Mohira*
OLIY O’QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 470-479

*Берикбаев Алишер Аликулович*
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ........ 480-483

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 484-489

*Yakubova Nafisa Odilyanovna*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH ........ 490-494

*Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li*
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI ........ 495-500

*Suvankulov Umid Ilxom o'g'li*
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 501-505

*Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich*
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV ........ 506-518

*Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li*
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI ........ 519-524

*Siddiqova Shahnoza Ahmedovna*
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ........ 525-529

*Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich*
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI ........ 530-534

*Javliyeva Shahnoza Bahodirovna*
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 535-539

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 540-545

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY ........ 546-550

*Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli*
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS ........ 551-555

*Latipova Gavhar Shavkat kizi*
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 556-564

*Ernazarov G'olibjon Ne'matovich*
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI ........ 565-568

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 11 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

## 08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

**Received:** 31 October 2024
**Accepted:** 5 November 2024
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

# IMPROVEMENT OF THE MECHANISM FOR ENSURING COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF STRUCTURAL CHANGES IN THE ECONOMY

**Tursunov Bekmukhammad Omonovich,**
Vice-Rector for research and innovations of Tashkent Humanitarian University, PhD, Associate Professor
E-mail: omonovich-0387@mail.ru

**Abstract.** This article examines the mechanism for ensuring the competitiveness of industrial enterprises in the context of structural changes in the economy and the scientific and theoretical foundations of its organization system. In the context of structural changes in the economy, the factors influencing the coordination of the state's technological policy and the process of its implementation in ensuring the competitiveness of industrial enterprises are systematized. A scientific proposal and practical recommendations aimed at increasing the importance of state technological policy in the process of ensuring the competitiveness of industrial enterprises have been formulated.

**Key words:** structural structure of production, industrial cooperation, competitiveness of industrial enterprises, competitiveness of exports, technological transformation, technological policy, investment risk, technological cycle, technology market.

# IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH

**Tursunov Bekmuxammad Omonovich,**
Toshkent gumanitar fanlar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, Phd., dotsent

**Annotasiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmi va uni tashkil etish tizimining ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashda davlatning texnologiya siyosati va uni amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtirishga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar tizimlashtirilgan. Davlat texnologiya siyosatini sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonidagi ahamiyatini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ishlab chiqarishning tuzilmaviy tarkibi, sanoat kooperatsiyasi, sanoat korxonalari raqobatbardoshligi, eksport raqobatbardoshligi, texnologik transformatsiya, texnologik siyosat, investitsion risk, texnologik sikl, texnologiyalar bozori.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N14

**Kirish.** Oʻzbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini shakllantirishda iqtisodiyot tarmoqlarida faol va maqsadli tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, xalq xoʻjaligining turli tuzilmalari oʻrtasida mutanosibliklarni taʼminlashga yoʻnaltirilgan tarkibiy oʻzgarishlar iqtisodiy faollikni oshirish jarayoniga kompleks taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilmalari faoliyati bilan bogʻliq turli nomutanosibliklarga barham beriladi.

Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026 yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasini 28-maqsadida, respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish bilan bogʻliq vazifalarning kompleks tizimi aks etgan[1]. Mazkur maqsadda aks etgan vazifalarning amaliy ijrosi, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan tizimli islohotlar zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu tarkibiy oʻzgarishlar asosi; iqtisodiy oʻsishning progressiv rivojlanishi bilan bogʻliq ustuvorliklarni taʼminlash; energiya va iqtisodiy resurslarni maksimal darajada tejash va ulardan foydalanish samaradorligini miqdor va sifat jihatidan takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarida koʻp ukladli mulkiy munosabatlarni rivojlantirish orqali raqobatbardoshlik ustunliklaridan samarali foydalanish imkoniyatlariga taʼsir koʻrsatuvchi iqtisodiy resurslar konsentratsiyasini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Oʻz navbatida mazkur islohotlarning samarali natijasi mamlakat va uning hududlarida import oʻrnini bosuvchi sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali tashqi savdo balansi bilan bogʻliq jarayonlarni optimallashtirish, sanoatda ilm sigʻimkorligi yuqori texnologik rivojlanishni taʼminlash hisobiga eksport raqobatbardoshligini oshirish, davlatning makroiqtisodiy siyosati orqali tarmoqlarda investitsion va innovatsion taraqqiyotni taʼminlovchi yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirishga taʼsir koʻrsatadi. Lekin, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq jarayonlar sanoat korxonalarining moslashuvchan mexanizmini shakllantirishni talab etadi. Mazkur mexanizmni shakllantirish jarayonida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish tizimiga eʼtibor berish maqsadga muvofiq. Ushbu tizim harakatini muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar uygʻunligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan tadqiqotlar bugungi iqtisodiy tizim sharoitidagi dolzarb vazifalarning fundamental asosini chuqur ilmiy asosda oʻrganishga imkon beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Soʻnggi yillarda, iqtisodiyot sohasidagi jahon ilmiy adabiyotlarida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini taʼminlash mexanizmi takomillashtirish, ayniqsa iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida sanoat korxonalarining bozor segmenti bilan bogʻliq ustuvorlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan tadqiqotlarga alohida ustuvorlik berilmoqda. Xususan, xorij iqtisodchi olimlaridan E.G.Leonidova, M.A.Sidorovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida iqtisodiyotning tanlangan tarmoqlarini ragʼbatlantirish yoʻllari va bu borada erishilingan natijlarni baholashning tegishli yondashuvlari taklif etiladi[2].

N.S.Seliverstova, O.N.Shkutko, O.V.Grigoryeva tadqiqotlarida raqamli yetuklik koʻrsatkichlarini iqtisodiy agentlarning bir xil guruhi rivojlanishining ajralmas koʻrsatkichi sifatida koʻrib chiqish taklif etiladi. O'rta darajadagi texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlar orasida sanoat sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarning ikkita yo'nalishi: birinchi, raqamli etuklikning o'sishi va dasturiy ta'minot va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari uskunalari sohasida mahalliy yechimlardan foydalanish hajmi; ikkinchi, barqaror rivojlanish

sohasida kommunikatsiya jarayonlarini raqamlashtirish koʻrsatib oʻtilgan[3].S.Lyubimsev tadqiqotlari milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini iqtisodiy tizimlarning rivojlanish xususiyatlari bilan bogʻlangan holda amalga oshirilingan boʻlib, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarning rivojlanish prizmasi zamonaviy bozor munosabatlarini shakllanish jarayonining zaruriyati sifatida e'tirof etiladi [4]. V.Ya.Vishnever tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonlarida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini tahlil qilishda sanoat tarmogʻining tarkibiy tuzulishi, muayyan tarkibiy tuzulishning asosiga alohida e'tibor berilgan.Sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy oʻzgarishlar tarmoqda korporativ tuzilmalar paydo bo'lishining asosi ekanligi qayd etiladi[5]. E.D.Korshunova, E.S.Ilichevalarning ilmiy tadqiqotarida sanoat korxonalari faoliyatida innovasion rivojlanish iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarga sanoat korxonalarining moslashuvchanligi ta'minlashning tegishli asosi sifatida qayd etiladi. Shu boisdan sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini boshqarishni tizimli rivojlanish strategiyasini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi[6].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan P.Z.Xashimov, D.R.Ustadjalilovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, tarmoq tarkibining tarixiy rivojlanish bosqichlari oʻrganilingan. Tarkibiy oʻzgarishlar mehnat resurslarining tarmoq doirasida bandligini ta'minlash jarayonida taqsimlash va mamlakatda yalpi ichki mahsulotning tarkibini sifat jihatidan takomillashtirish asosi ekanligi qayd etiladi[7]. D.G.Mamadjonov tadqiqotlarida mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat tarkibida tarmoqlar ulushining solishtirma tahlili amalga oshirilingan boʻlib, tahlil xulosalariga asosan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda amalga oshirilgan tarkibiy oʻzgarishlar, bevosita sanoatda yalpi qoʻshilgan qiymat tarkibidagi siljishlar asosi sifatida e'tirof etilgan[8]. A.S.Mallaboyev sanoat tarmoqlarida tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish jarayonini takomillashtirish doirasidagi tadqiqotida sanoatda ilmiy-texnikaviy va tajriba-konstruktorlik ishlar loyihalarini yaratish, ishlab chiqarishga joriy etish jarayonlarida davlat-xususiy sektor-universitet hamkorligini kuchaytirish, sanoatda xususiy sektor ulushini oshirish, sanoat tarmogʻida innovasion texnologiyalarni ishlab chiqarishni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishni taklif etadi [9].

Yuqoridagi tadqiqotlarda iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar asosi texnik taraqqiyot natijasi sifatida qayd etilgan boʻlib, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishni ustuvor yoʻnalishlarini shakllantirishda bozor mexanizmining oʻrni, sanoat korxonalari tomonidan ichki va tashqi bozordagi mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari bilan bogʻliq jarayonlarga e'tibor berilmaganligi bilan xarakterlanadi.

**Muhokama.** Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning davlat mexanizmi, sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosatda korxonalarning ish va bozor faolligini belgilab beruvchi imtiyozlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, korxonalarda raqobatchilarga nisbatan maqbul sifat standartlarini joriy etish, tashkiliy tuzilmalar faoliyati orqali korxonalarning texnologik va ilmiy-texnikaviy sohadagi xalqaro hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarni belgilab beradi.

Tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida davlat va bozor mexanizmi oʻrtsidagi singarmonizm ta'minlanmaganligi sababli sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish bilan bogʻliq quyidagi muammolar yuzaga keladi:

**sanoat korxonalarida kadrlar qoʻnimsizligi.** Sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy oʻzgarishlar sanoat korxonalarida ish joylariga boʻlgan talabning oʻzgaruvchan parametrlarini

yuzaga keltiradi. Oʻzgaruvchan parametrlar, tarkibiy oʻzgarishlarga doir jarayonlarning uzoq yoki qisqa muddatliligiga bogʻliq. Agar tarmoq faoliyati bilan bogʻliq texnologik transformatsiya jarayoni qisqa davrga ega boʻlsa, kadrlarning ish joylariga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati pasayib boradi. Pirovard natijada kadrlar qoʻnimsizligi yuzaga keladi;

**ishchi kuchining malaka darajasini nomuvofiqligi.** Iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar ta'sirida sanoat ishlab chiqarishning tuzilmaviy tarkibi kengayib boradi. Sanoat ishlab chiqarish jarayonida mavjud bilim va koʻnikmaning ishlab chiqarish jarayoniga nomuvofiqligi sababli ishlab chiqarishning real va potensial hajmi oʻrtasida tafovut yuzaga keladi. Natijada sanoat korxonalarida ishchi kuchining ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan muvofiqligini ta'minlashga yoʻnaltirilgan investitsion talabi ortadi;

**sanoat korxonalarini rivojlantirish bilan bogʻliq hududiy nomutanosibliklar.** Iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bogʻliq jarayonlarga turlicha ta'sir koʻrsatadi. Bu sanoat ishlab chiqarish jarayonidan ortda qolayotgan hududlarni ishlab chiqarish bilan bogʻliq turgʻunligini yuzaga keltiradi. Shuningdek, sanoati rivojlangan hududlar jadal rivojlanish jarayonini boshdan kechirishlari mumkin.

**korxonalar tomonidan tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq jarayonlarni oʻz vaqtida qabul qilinmasligi**. Ba'zi tarmoqlardagi manfaatdor korxonalar yuqori risk sharoiti tufayli tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq jarayonlarga qarshilik koʻrsatiladi. Bu qarshilik ta'sirida sanoat korxonalarining bozor faoliyatiga moslashuvchanligi va iqtisodiy faollik darajasi pasayib boradi;

**moliyalashtirish jarayoni bilan bogʻliq investitsion risk darajasining ortishi**. Tarkibiy oʻzgarishlar jarayoni sanoat tarmoqlari doirasidagi korxonalarni qoʻllab-quvvatlash uchun doimiy investitsiyalarni talab qiladi. Iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatli tarkibiy oʻzgarishlar samarali investitsion faoliyatni amalga oshirish bilan birga aksincha holat kuzatilinishi ham mumkin. Tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash, sanoat ishlab chiqarishni yangi bozor sharoitlariga moslashtirish bilan bogʻliq xarajatlarini ortishi korxonalarning debitorlik qarz majburiyatlarini ortishiga sabab boʻladi.

**ichki bozorda korxona savdo hajmining qisqarishi.** Tarkibiy oʻzgarishlar sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash negizida mamlakat eksport salohiyatini barqaror oshirish imkoniyatini bersada, bu ma'lum oraliq davrni talab etadi. Ushbu vaqt oraligʻida ichki bozorlardagi mavjud talab hajmi import mahsulotlar orqali qoplanadi. Mazkur jarayon sanoat korxonalarini ichki bozordagi savdo hajmini pasayishiga olib keladi.

Iqtisodiyotning strategik tarmoqlari faoliyatida tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishda tegishli shart-sharoitlarni ta'minlash bilan birga tarmoq faoliyatini himoyalash mexanizmlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Himoyalash mexanizmlari vaqtinchalik ahamiyatga ega boʻlib, ularning harakatini bozor omillari ta'sirida amal qilishini ta'minlash lozim.

Sanoat tarmoqlarida aniq strategik yoʻnalishga ega boʻlgan tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishda tarmoqlar faoliyatini diversifikatsiya qilishga yoʻnaltirilgan ustuvorlikni ta'minlash talab etiladi.

Tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat sanoatini rivojlantirishni jahon kon’yunkturasidagi oʻzgarishlarga bogʻliqligini ifodalab beradi.

Ushbu muammolarni hal qilish, davlat va korxonalar faoliyati bilan bogʻliq hamkorlikni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Davlat bu borada ishlab chiquvchilar manfaati yuzasidan kadrlar malakasini oshirish, korxonalarning innovatsion va investitsion faolligini ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan mexanizmlarni shakllantirishga harakat qiladi.

Ushbu mexanizmlar ta’sirida iste’mol bozorida muvozanatlikni ta’minlash imkoniyatini beradigan sanoat ishlab chiqarish bilan bogʻliq tarkibiy oʻzgarishlar amalga oshiriladi.Mazkur muvozanatlikni ta’minlashda davlatning ishlab chiqarish jarayonini qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan texnologiya siyosati muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida davlatning texnologiya siyosati korxonalarda ishlab chiqarishni koʻp vektorli yangi texnologik tizimga integratsiyasini ta’minlash imkoniyatini beradi. Iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan davlat texnologiya siyosatining asosiy yoʻnalishlarini qoʻyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Davlat texnologiya siyosatini amalga oshirish yoʻnalishlari**[1]

| № | Texnologiya siyosati turlari | Texnologiya siyosatini amalga oshirish tasnifi |
|---|---|---|
| 1. | An’anaviy texnologik siyosat | Texnologik taraqqiyotning chiziqli modeliga asoslangan boʻlib, texnologik jarayon davlatning fundamental tadqiqotlari doirasida muvofiqlashtirilib boriladi. |
| 2. | Modernizatsion texnologik siyosat | Bozor munosabatlari sharoitida tarmoq yoki korxona faoliyatini rivojlantirish bilan bogʻliq texnologik tizim takomillashtiriladi. Takomillashuv jarayonida mavjud texnoligilarning tegishli komponent va agregatlari zamonaviylari bilan almashtirib boriladi. |
| 3. | Innovatsion texnologik siyosat | Korxonalar faoliyatida innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi. Tegishli innovatsionlar orqali korxonada ishlab chiqarishni tashkil etishning yuqori texnologik transformatsiyasi ta’minlanadi. |

Fikrimizcha, davlat texnologiya siyosatining tegishli yoʻnalishlari iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan texnologik tizimga asoslanadi. Texnologik tizimning tashkiliy asosi bilan bogʻliq texnik usullar tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishning davomiyligi jihatidan farqlanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq texnologik tizimning tashkiliy shaklini notoʻgʻri tanlanishi sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga doir jarayonlarga salbiy ta’sir koʻrsatadi.

Davlatning texnologiya siyosati ta’sirida sanoat ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bilan bogʻliq taqsimot shakllanadi. Taqsimotning tegishli koʻrsatkichi sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmini oshirish va sifat koʻrsatkichlarini ta’minlash imkoniyatini beradi. Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish sanoat tarmoqlarini texnologik

[1] Tadqiqotlarga asoslangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan

rivojlantirishning manbai hisoblanadi. Shu boisdan fan-texnika taraqqiyoti davlat texnologiya siyosatini takomillashtirish-ning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlatning texnologiya siyosati orqali milliy ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, to‘liq avtomatlashtirish hisobiga mehnat unumdorligini oshirish, energiya resurslarini tejash orqali ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatini beradi. Mazkur omillar sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot raqobatdoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Natijalar.** Hozirgi vaqtda amaliyotda yetakchi sanoat korxonalari tomonidan texnologik ustuvorlik hisobiga raqobatbardoshlikni ta’minlashga yuqori darajada e’tibor berilayotgan bo‘lib, texnologiyalar strategik kapital sifatida samarali boshqaruv tizimiga ega. Bu jarayon yetakchi sanoat korxonalarining texnologik paritetiga obyektiv ravishda bog‘liq bo‘lgan “texnologik sikl”ni ta’minlash imkoniyatini beradi. Ushbu texnologik sikl bosqichlari quyidagilardan iborat:

**Korxonalarning texnologik rivojlanishini amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar va mumkin bo‘lgan o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash bosqichi**. Ushbu bosqichda korxonaning iqtisodiy rivojlanish holati, rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi shart sharoit va omillar tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini maqsadga muvofiqligiga doir mezonlar belgilab olinadi. Texnologik jarayon zarur hollarda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari bilan ta’minlashni talab etadi. Bu bosqichda ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mustaqil qaror qabul qilish yo‘li orqali tartibga solinadi. Ammo, davlat va bozor mexanizmi tomonidan tartibga solinadigan rivojlanish vektorida texnologik asos kelgusidagi harakat algoritmini rejalashtirishga ta’sir ko‘rsatadi;

**Fan-ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash bosqichi.** Mazkur bosqichda oliy ta’lim va sanoat korxonalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari tashkil etiladi. Oliy ta’lim tashkilotlari va korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlash bilan bog‘liq tegishli texnologik rivojlanish modeli tanlanadi. Hamkorlik shartlariga muvofiq, korxonaning texnologik rivojlanish loyihasi shakllantirilib uning asosiy mazmuniga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqiladi. Loyihani moliyalashtirish bilan bog‘liq smetasi tasdiqlanadi. Loyihaga bo‘lgan ehtiyojlar darajasiga muvofiq risk darajasi aniqlanadi va hamkorlik shartnomasi imzolanadi. Ushbu bosqichda korxonaning texnologik rivojlanish strategiyasini belgilash muhim ahamiyatga ega;

**Korxonani texnologik rivojlantirish loyihasini ishlab chiqishni amalga oshirish.** Ushbu bosqichda korxona tomonidan buyurtma qilingan konstruktorlik ishlanmalar bilan bog‘liq ilmiy-texnik tadqiqotlar olib boriladi. Tajriba-konstruktorlik ishlari tegishli texnologiyalarni ishga tushirish tizimi bilan bevosita bog‘liq;

**Sanoat ishlab chiqarishni texnologik rivojlantirish.** Bu bosqichda texnologiya sanoat ishlab chiqarishning boshlang‘ich davri hisoblanib, yangi texnologiya mahsulot sifatida bozorga chiqariladi. Ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan texnologik sikl yakunlanishi texnologik rivojlanish jarayoning davomiyligi belgilab beradi;

**Korxonaning keyingi texnologik rivojlanish bosqichi.** Zamonaviy iqtisodiyot tizim doirasida ishlab chiqarishni texnologik rivojlantirish, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish bilan bog‘liq ustuvorlik hisobiga korxona raqobatbardoshligi ta’minlanadi. Shu sababli ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan uzluksiz texnologik tizimni rivojlanish talab etiladi. Loyihani amalga oshirish bosqichlarida to‘plangan tajriba ijobiy bo‘lsa korxonaning hamkorlari bilan

faoliyatini texnologik takomillashtirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli manfaatli aloqalar davom ettiriladi. “Texnologik sikl”ning davomiyligi sanoat korxonalarining texnologik paritetiga obyektiv ravishda bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligini oshirish jarayoni davlat texnologik siyosatiga bog‘liq. Siklning davomiyligi davlat texnologiya siyosatining natijadorligini asoslash uchun xizmat qiladi. Mazkur siklning davomiyligi davlat texnologiya siyosatining tashkiliy asosi orqali muvofiqlashtirib boriladi. “Texnologik sikl” modelida tashkiliy nuqtai nazardan korxonaning keyingi texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq ehtiyojlar darajasi taklif qilinadi. Ushbu muvofiqlashtirish jarayonini davlat texnologiya siyosatining quyidagi tizimi orqali muvofiqlashtirish mumkin (1-rasm).

Tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayoni davlat texnologiya siyosatini muvofiqlashtirish tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat texnologiya siyosatini muvofiqlashtirishda texnologik siyosatning me’yoriy-huquqiy mexanizmini shakllantirish talab etiladi. Ushbu mexanizmda texnologik faoliyatni amalga oshirish tamoyillari va usullari, texnologik faoliyatdan manfaatdor korxonalar va tashkilotlar uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, ularni takomillashtirish chora tadbirlarining tartibi aks etadi.

Texnologik siyosatini amalga oshirishning me’yoriy-huquqiy asoslari davlatning texnologiya siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan institutsional o‘zgarishlar ta’sirida takomillashib boradi. Texnologik siyosatning me’yoriy-huquqiy asoslari texnologiyalar almashinuv bozori faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish xarakteriga ega.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlashga doir muammolarning samarali yechimini shakllantirishda texnologik jarayonlarni muvofiqlashtirishning imtiyozlar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Tarmoq va korxonalarda texnologik jarayonlarni muvofiqlashtirishga doir imtiyozlar tizimi; moliyaviy, tashkiliy-iqtisodiy, texnik yo‘nalishlar doirasida shakllantiriladi.



**1-rasm. Iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan davlat texnologiya siyosatining tashkiliy asosi**[1]

Sanoatning tarmoq va sohalarida muhandislik dasturlarini shakllantirmasdan turib iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish murakkab jarayon hisoblanadi. Sanoat va muhandislik dasturlarining tegishli model va algoritmlari ishlab chiqarishning sinergik samaradorligini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Davlat texnologiya siyosatining ushbu komponentlari texnologik almashinuv bozori faoliyatini diversifikatsiyalashga taʼsir koʻrsatadi.

Texnologiyalar almashinuv bozorining takomillashuvi bozor segmentlari soni va ularning jozibadorligida aks etadi.

**Xulosa.** Fikrimizcha, texnologiyalar almashinuv bozorining segmentatsiyasi yuqori texnologiyali kapital va texnik mutaxassislar konsentratsiyasi hamda integratsiyasi orqali taʼminlanadi. Oʻz navbatida texnologiyalar almashinuv bozori uchun zaruriy infratuzilmalar faoliyatini taqozo etadi.

Tarkibiy oʻzgarishlar jarayonida texnologiyalar almashinuv bozorini segmentlash bilan bogʻliq islohotlar raqobatchi korxona yoki tarmoq faoliyatini pozitsionlash orqali amalga oshiriladi. Pozitsionlash shartlariga muvofiq tanlangan maqsadli bozor segmentlarida tegishli texnologiyalar joylashtiriladi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan davlat texnologiya siyosatining asosiy maqsadi, sanoatning texnologik raqobatbardoshligini taʼminlashdan iborat. Shu sababli, davlat texnologiyalar sohasida xalqaro ayriboshlash va boshqa shakllariga asoslangan xalqaro hamkorlik aloqalari rivojlantiriladi.

Oʻzbekistonda iqtisodiy oʻsishni taʼminlashning progressiv elementlari tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq qarama-qarshiliklarga nisbatan samarali yechimni shakllantirish zarurligini koʻrsatadi. Mazkur muammoni samarali yechimi mamlakatlar iqtisodiyotini xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga samarali integratsiyasini taʼminlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Oʻzbekiston iqtisodiyotida tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi ustuvorliklarni taʼminlash maqsadga muvofiq;

tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishda sanoat korxonalari faoliyati bilan bogʻliq bankrotlik instituti faoliyatini rivojlantirish;

tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishda tarmoqlar faoliyatida mavjud monopol korxonalar faoliyatini hisobga olib bu boradagi tashkiliy asosni muvofiqlashtirish mexanizmini joriy etish;

sanoat korxonalari faoliyatida teng shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladigan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Леонидова Е.Г., Сидоров М.А. Структурные изменения экономики: поиск отраслевых драйверов роста // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2019. Т. 12. № 6. С. 166–181. DOI: 10.15838/esc.2019.6.66.9.


[1] Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan

3. Селиверстова Н.С., Шкутько О.Н., Григорьева О.В. Структурные изменения среднетехнологичных отраслей экономики в условиях цифровой трансформации промышленности. *Russian Journal of Economics and Law*. 2023;17(3):532-547. https://doi.org/10.21202/2782-2923.2023.3.532-547
4. Любимцев, С. Структурная модернизация экономики / С. Любимцев // Экономист. 2003. № 2, с. 12-32.
5. Вишневер, В.Я. Конкуренция в структуре отраслевого рынка/ В.Я.Вишневер //Вопросыэкономики и права. -.2011. - № 3. - С.49 -53.
6. Коршунова, Е.Д., Ильичева, Е. С. Метод управления инновационным потенциалом промышленного предприятия на основе системной декомпозиции структуры и оценки его элементов//Технология машиностроения, 2012. № 6 С.60-64
7. Хашимов П.З, Устаджалилов Д.Р. Миллий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш йўллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2020. №2 (134). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-i-tisodiyotda-tarkibiy-zgarishlarni-amalga-oshirish-y-llari.
8. Мамаджонов Д.Г. Ўзбекистонда саноат тармоғи ривожланишининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.
9. Маллабоев А.С. Миллий саноатлашув жараёнларида ишлаб чиқарадиган саноатда таркибий ўзгаришлар/ "Молия" илмий журнали, №3/2023. 154-161 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).